

XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



2024- yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi miqdori (dastlabki ma‘lumot)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 976,2 ming so‘mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 114,5 foizgao‘sdi.

Tarmoqlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi
(2024- yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

SANOAT SOHASIDA



5 256,0
ming so‘m

oktabr

noyabr

5 192,0
ming so‘m

5 681,1
ming so‘m

dekabr

Yanvar-dekabr

4 886,8
ming so‘m

QURILISH SOHASIDA



5 316,9
ming so‘m

oktabr

noyabr

4 865,9
ming so‘m

6 180,3
ming so‘m

dekabr

Yanvar-dekabr

4 484,1
ming so‘m

SAVDO SOHASIDA



8 176,3
ming so'm

oktabr

noyabr

7 624,4
ming so'm

7 775,5
ming so'm

dekabr

Yanvar-dekabr

6 892,5
ming so'm

TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA



7 224,7
ming so'm

oktabr

noyabr

8 135,1
ming so'm

7 893,7
ming so'm

dekabr

Yanvar-dekabr

7 448,8
ming so'm

AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



8 932,0
ming so'm

oktabr

noyabr

7 917,9
ming so'm

8 811,2
ming so'm

dekabr

Yanvar-dekabr

8 282,9
ming so'm

MOLIYAVIY VA SUG'URTA FAOLIYATISOHASIDA



11 025,9
ming so'm

oktabr

noyabr

10 609,8
ming so'm


14 715,4
ming so'm

dekabr

Yanvar-dekabr

11 238,1
ming so'm


TA'LIM SOHASIDA



Yanvar-dekabr

3 301,1
ming so'm


SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASIDA



Yanvar-dekabr

3 179,7
ming so'm



SAN'AT, KO'NGIL OCHISH VA DAM OLISH SOHASIDA



Yanvar-dekabr

3 380,9
ming so'm

BOSHQA FAOLIYAT TURLARI SOHASIDA




Yanvar-dekabr

4 834,7
ming so'm



Sohalar kesimida o'rtacha oylik ish haqi miqdori va o'sish sur'ati
(2024 yil yanvar-dekabr)



Ish haqi miqdori ming so'm ▲ O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati savdo sohasida 2,4 martani, tashish va saqlash faoliyatisohasida 33 % ni, sanoat sohasida 24,0 % ni, qurilish sohasida 19,9 % ni, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 16,4%ni?, ta'lim sohasida 13,1% ni tashkil etib boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori bo'ldi.



Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilot xodimlari soni, ish haqi fondi hamda o'rtacha oylik ish haqi
(2024- yil yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi:</i>	<i>Ish haqi fondi, mln so'm</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm:</i>
Jizzax viloyati bo'yicha – jami	112 936	5 319 714,2	3 976,2
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	15 389	902 430,4	4 886,8
Qurilish	1 390	81 466,8	4 884,1
Savdo	1 201	99 335,0	6 892,5
Tashish va saqlash	668	59 709,5	7 448,8
Yashash va ovqatlanish	128	4 751,7	3 093,6
Axborot va aloqa	494	49 101,2	8 282,9
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	1 869	252 048,2	11 238,1
Ta'lim	53 220	2 108 192,4	3 301,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	23 118	882 087,5	3 179,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	933	37 853,0	3 380,9
Boshqa faoliyat turlari	14 526	842 738,5	4 834,7

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Moliya va sug'urta faoliyati sohasida 11 238,1 mingso'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,8 m.), Axborot va aloqa faoliyati 8 282,9 ming so'mni (2,1 m.) va Tashish va saqlash 7 448,8 ming so'mni (187,3 %) tashkil etib, boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori bo'ldi.



Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Zafarobod 182,4 %, G'allaorol 166,5 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Forish 39,9% va Do'stlik 43,9 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax shahri 120,4 %, Zomin tumani 118,2 % va Paxtakor tumani 115,9 % da kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Zafarobod tumani 70,2 % va G'allaorol tumanida 71,0 % kuzatildi.



Savdo sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida 107,7 % viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Savdo sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi, Baxmal 24,5 % tumanida kuzatildi.



Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahrida 136,4 %, Zarbdor 110,4 % va Baxmal 100,5 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Zafarobod 78,2 %, Yangiobod 80,1 % hamda G'allaorol 81,1 %, tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiganisbatan yuqori ko'rsatkichlari Arnasoy 146,4 %, Zomin 112,5 %, Paxtakor 107,4 % va Jizzax shahri 106,4 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Zarbdor 88,3 %, Forish 86,2 %, G'allaorol 84,7 % tumanlarida kuzatildi



Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Yangiobod 101,2 %, Jizzax shahrida 100,0 % tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yil yanvar-dekabr, ming so'mda)

O'rtacha oylik ish	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyatida	3 472,3	3 976,2	114,5
Jizzax shahri	4 449,0	5 096,9	114,6
tumanlar:			
Arnasoy	2 830,8	3 414,5	120,6
Baxmal	2 910,9	3 222,5	110,7
G'allaorol	3 197,5	3 917,9	122,5
Sharof Rashidov	2 741,3	3 140,3	114,6
Do'stlik	2 727,9	2 987,4	109,5
Zomin	2 915,8	3 333,5	114,3
Zarbdor	3 233,4	3 550,0	109,8
Zafarobod	3 839,0	4 417,1	115,1
Mirzacho'l	2 757,2	3 017,0	109,4
Paxtakor	3 007,7	3 541,9	117,8
Forish	2 638,1	2 816,4	106,8
Yangiobod	2 605,9	2 999,3	115,1

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 5 096,9 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,6 %), Zafarobod tumanida 4 417,1 ming so'mni (115,1 %), G'allaorol tumanida 3 917,9 mingso'm (122,5 %), Zarbdor tumanida 3 550,0 ming so'mni (109,8 %) va Paxtakor tumanida 3 541,9 ming so'm (117,8 %) ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi

(2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 128,2 % va Zafarobod tumanida 111,1 % ni tashkil qilgan bo'lsa, Forish tumanida 70,8 % va Do'stlik tumanida 75,1 % nitashkil etib, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'ldi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida mehnatga haq to'lash eng kam miqdori (2024 yil oktabr oyidan 1 155,0 ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**JIZZAX VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI
2024- YIL YANVAR-DEKABR**

*Nashrga mas'ul:
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi*

tel.: 0(372) 221-51-19

Buyurtma raqami № 29.01.2025- yil Tiraj 15 nusxa

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Jizzax shahri, To'qimachilar ko'chasi 7**

Rasmiy veb-sayt: www.jizzaxstat.uz
elektron pochta manzili: info@jizzaxstat.uz
elektron himoyalangan pochta manzili: jiz.stat@exat.uz